

**2026-2027-O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTABLARNING
8-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN FIZIKA FANIDAN TEST
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTABLARINING 8-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN FIZIKA FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning 8-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarni fizika fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining fizika fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi maktablarning 8-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi “Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 214-son qarori.

2. Tabiiy fan va fizika fanlaridan umumiy o‘rta ta’limning 5-7-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning 8-sinfiga o‘qishga qabul jarayonida o‘quvchilarning fizika fanini bilish darajasini aniqlash uchun jami **10 ta** yopiq test topshirig‘i taqdim etiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun **20 daqiqa** vaqt belgilangan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlaridan (Y3)*) foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. MEXANIK HARAKAT HAQIDA MA'LUMOTLAR (1-2-savollar)		2 ta
1.1. Fizik kattaliklar. Xalqaro birliklar sistemasi(SI). Skalyar va vektor kattaliklar. Kinematikaning asosiy tushunchalari	O'quvchi fizik kattaliklarni amaliy vaziyatlarda aniqlab o'lchaydi, mos SI birliklarini tanlaydi va o'tkazadi; oddiy tajribani rejalab o'tkazadi, natijalarni jadval/grafikda tahlil qiladi va xulosa chiqaradi; kattaliklarni skalyar va vektorga ajratib, vektor yo'nalishini tasvirlaydi; sanoq sistemasini tanlab mexanik harakatni izohlaydi, yo'l–ko'chish–tezlik–vaqt tushunchalarini real masalalarda qo'llab, grafik/rasmlardan foydalanib to'g'ri natijaga keladi.	1
1.2. To'g'ri chiziqli tekis harakatda tezlik va yo'l. Notekis harakat. Aylana bo'ylab harakat.	O'quvchi tekis harakatda tezlik–vaqt–yo'l orasidagi bog'lanishni amaliy masalalarda qo'llab, jadval/grafikdan foydalanib yo'l yoki tezlikni topadi; notekis harakatda tezlikning o'zgarishini tahlil qilib, qaysi oraliqda tezlanish yoki sekinlanish borligini aniqlaydi; aylana bo'ylab harakatda aylanish davri va chastotasini real vaziyatlarda qo'llab, aylanishlar soni, vaqt va yo'lga doir masalalarda xulosa chiqaradi.	1
2. TABIATDA KUCH. ENERGIYA (3-4-savollar)		2 ta
2.1. Massa, zichlik va uning birliklari. Jismlarning o'zaro ta'siri. Bosim. Suyuqlik va gazlarda bosimning uzatilishi.	O'quvchi massani, zichlikni va bosimni amaliy vaziyatlarda o'lchab/taqqoslab qo'llaydi, ularning birliklarini to'g'ri tanlaydi va kerak bo'lsa o'tkazadi; jismlarning o'zaro ta'sirini tahlil qilib kuchning yo'nalishi va ta'sirini real misollarda aniqlaydi; suyuqlik va gazlarda bosimning uzatilishini kundalik qurilmalar (shprints, gidravlik moslama) misolida izohlaydi va qaysi holatda bosim ko'proq/kamroq bo'lishini asoslab tanlaydi; tinch suyuqlikda bosimning chuqurlik va zichlikka bog'liqligini kuzatuv/tajriba ma'lumotlari asosida tushuntirib, amaliy masalalarda (idish tubi, suv osti bosimi) to'g'ri xulosa chiqaradi.	1

<p>2.2. Ish. Energiya. Quvvat.</p>	<p>O‘quvchi kuch–ko‘chish–yo‘nalish munosabatini tahlil qilib, qaysi holatda mexanik ish bajarilishi/bajarilmasligini asoslaydi; real vaziyatlarda mexanik energiya turlarini (kinetik, potensial, elastik) ajratib, energiyaning bir turdan boshqasiga o‘tishini model qiladi va yo‘qotishlar (ishqalanish, qarshilik) ta’sirini baholaydi; bir xil ish turli vaqtda bajarilganda quvvatning farqini tahlil qilib, qaysi mexanizm/harakat “samaraliroq” yoki “tezroq” ekanini dalil bilan xulosa qiladi, shuningdek berilgan shartlardan kelib chiqib ish–energiya–quvvat orasidagi bog‘lanishdan strategiya tanlab murakkabroq masalalarni yechadi.</p>	<p>1</p>
<p>3. ISSIQLIK HODISALARI (5-savol)</p>		<p>1 ta</p>
<p>3.1. Issiqlik hodisalari</p>	<p>O‘quvchi ichki energiyaning o‘zgarishini kundalik jarayonlarda qo‘llab tushuntiradi (qizish–sovish, ishqalanish, aralashtirish), issiqlik almashinuvi va ish bajarish orqali ichki energiya qanday o‘zgarishini ajratadi; yoqilg‘ining solishtirma yonish issiqligiga tayangan holda turli yoqilg‘ilarni taqqoslaydi va berilgan sharoitda qaysi biri ko‘proq issiqlik berishini aniqlaydi; bug‘lanish, kondensatsiya va qaynashni farqlab, sharoitlar (harorat, bosim, yuzaning kattaligi, shamol/namlik) o‘zgarganda jarayon tezligi va kechishi qanday bo‘lishini izohlaydi; qattiq jismlarning erishi va qotishida issiqlikning yutilishi/ajralishini kuzatuv asosida tushuntirib, amaliy vaziyatlarda (muz eritish, moddani tezroq eritish yoki tezroq qotirish) mos usulni tanlaydi.</p>	<p>1</p>
<p>4. ELEKTR (6-8 savollar)</p>		<p>3 ta</p>
<p>4.1. Jismlarning elektrlanishi. Elektroskop va elektrometr. Elektr o‘tkazgichlar va</p>	<p>O‘quvchi jismlarning elektrlanishini (ishqalash, tegizish, ta’sir orqali) taniydi va ta’riflaydi; elektr zaryadni va uning musbat/manfiy turlarini biladi, zaryadning saqlanishi haqidagi oddiy mazmunni ayta oladi; elektroskop va elektrometrning vazifasini tushuntiradi hamda ularning zaryad bor-</p>	<p>1</p>

<p>dielektriklar. Zaryadlangan jismlarning o‘zaro ta’sirlashuvi.</p>	<p>yo‘qligini aniqlashda ishlatilishini biladi; elektr o‘tkazgichlar va dielektriklarni ajratadi va misollar keltiradi; zaryadlangan jismlar o‘zaro tortilishi/itarilishi qoidasini aytadi va oddiy vaziyatlarda qaysi ta’sir kuzatilishini taniydi.</p>	
<p>4.2. O‘tkazgichlarda elektr zaryadlarning taqsimlanishi. Tabiatdagi elektr hodisalar. Elektr toki. Tok manbalari</p>	<p>O‘quvchi o‘tkazgichda zaryadlar qanday taqsimlanishini amaliy vaziyatlarda qo‘llab tushuntiradi (zaryadning sirtga chiqishi, uchli joylarda kuchliroq to‘planishi, yerga ulash ta’siri) va oddiy rasm/vaziyatdan zaryadlanish holatini aniqlaydi; tabiatdagi elektr hodisalarini (chaqmoq, yashin, statik zaryadlanish) kundalik kuzatuvlar bilan bog‘lab izohlaydi hamda xavfsiz harakatni tanlaydi; elektr tokini zaryadlarning yo‘nalgan harakati sifatida qo‘llab, zanjirda tokning mavjud bo‘lish shartlarini (yopiq zanjir, manba) aniqlaydi; tok manbalarini (batareya, akkumulyator, generator) vazifasiga ko‘ra taqqoslaydi va berilgan qurilma uchun mos manbani tanlab asoslaydi.</p>	<p>1</p>
<p>4.3. Elektr kuchlanish va uni o‘lchash. Tok kuchi. Elektr qarshilik. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni.</p>	<p>O‘quvchi elektr zanjiridagi kuchlanish, tok kuchi va qarshilikning rolini tahlil qilib, o‘lchov asboblari (voltmetr/ampermetr) to‘g‘ri ulash sxemasini tanlaydi va noto‘g‘ri ulanish oqibatlarini asoslaydi; rezistor va reostatli zanjirlarda qarshilik o‘zgarganda tok va kuchlanish qanday o‘zgarishini bashorat qiladi, berilgan jadval/grafik yoki tajriba natijalaridan foydalanib zanjir parametrlari orasidagi bog‘lanishni xulosa qiladi; Om qonunini qo‘llab zanjirning bir qismi uchun noma’lum kattalikni strategik tanlov orqali topadi (qaysi kattalikni o‘lchab/berib aniqlash kerakligini belgilaydi), natijani fizik ma’nodan tekshiradi (mantiqan mos kelishi, birliklar), hamda berilgan shartga mos zanjirni (tokni cheklash, lampani himoyalash, yorqinlikni rostdash) loyihalaydi va izohlaydi.</p>	<p>1</p>
<p>5. OPTIKA (9-10 savollar)</p>		<p>2 ta</p>

<p>5.1. Yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi</p>	<p>O‘quvchi yorug‘likning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tarqalishi asosida soyalanish hodisasini tahlil qiladi, berilgan vaziyat va sxemalarda soya va yarim soya chegaralarini aniqlab, ularning o‘lchami va joylashuvi manba–jism–ekran holati o‘zgarganda qanday o‘zgarishini bashorat qiladi; Quyosh va Oy tutilishida Quyosh–Yer–Oy ning fazoviy joylashuvini model qilib, qaysi holatda qaysi tutilish yuz berishini dalil bilan asoslaydi, tutilish nega har oy bo‘lmasligini (orbital tekisliklarning mos kelmasligi) mantiqan tushuntiradi va berilgan rasm/jadvaldan tutilish turini hamda kuzatilish hududini xulosa qilib chiqaradi.</p>	<p>1</p>
<p>5.2. Linzalar</p>	<p>O‘quvchi yorug‘likning qaytishi va sinishi hodisalarini ta’riflaydi, tushish–qaytish burchaklarini nomlaydi va oddiy misollar bilan taniydi; silliq/qo‘pol sirtlarda qaytish farqini biladi hamda sinishning muhitga bog‘liqligini aytadi. Shuningdek, linzani ta’riflaydi, linzalarning turlari (yig‘uvchi va sochuvchi)ni ajratadi, linzaning asosiy qismlarini (optik markaz, asosiy o‘q, fokus, fokus masofasi) nomlaydi va linzaning tasvir hosil qilishdagi umumiy vazifasini tushuntiradi.</p>	<p>1</p>
<p>Jami</p>		<p>10 ta</p>

IV. Kognitiv ko‘nikmalar va baholash mezonlari

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko‘nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan.

Test topshiriqlarining kognitiv ko‘nikmalar va baholash mezonlari bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)	Baholash mezoni (ball)
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalalar, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan	2	1,1
Qo'llash	Produktiv o'quv topshiriqlarining o'quvchilar tomonidan o'rganilgan qoidalar va formulalarni tanish vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar berilgan ma'lumotlar asosida sodda hisob-kitoblarni bajaradi, standart shakldagi masalalarni yechadi hamda formula yoki qoidani to'g'ridan to'g'ri qo'llaydi.	2	1,1
	Produktiv o'quv topshiriqlari o'quvchilardan o'rganilgan qoidalar va formulalarni bir nechta bosqichdan iborat hamda qisman noodatiy vaziyatlarda ongli ravishda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar masala shartini tahlil qiladi, mos yechim usulini tanlaydi, bir nechta formulalar yoki qoidalarni ketma-ket va mantiqiy bog'liqlikda qo'llaydi hamda yechim jarayonida oraliq xulosalar chiqaradi.	3	2,1
Mulohaza qilish	Intellectual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi	3	2,1

Test topshiriqlari umumiy **17 ball** bilan baholanadi. Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. "Tabiiy fan" 6-sinf darsligi Jasvinder K. Randhawa va Dr Natasha Mehta – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.

2. Tabiiy fanlar 6-sinf mashq daftari, Jasvinder K. Randhawa va Dr Natasha Mehta, Teo Tang Vi. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024.

3. "Fizika" 7-sinf darsligi K. Suyarov, J. Usarov, Z. Sangirova, Y. Ravshanov, N. Buranova. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.